

## TABIAT VA HIKMAT. GEOGRAFIYA DARSLARIDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.

Hilola Niyozova Yo`ldoshevna

*Chirchiq shahar 24-maktab MMIBDO`,  
geografiya fani o`qituvchisi*

### Annatatsiya

*Hozirgi kunda oly va o`rta ta`limda ta`lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish maqsadida Davlat ta`limi standartlarini amalyotga joriy etishda barcha umumta `lim fanlari qatori Gografiya fani ham o`quv dasturi va darsliklar bilan ta`minlanib ,zamonaviy pedagogik texnalogiyalar hayotga joriy etilmoqda . DTSda keltirilgan geografik obyekt ,hodisa hamda jarayonlar mazmunini o`quvchilarining puxta o`zlashtirishlarida ,sabab va oqibat bog`lanishlarini bilib olishlarida tajribaga sinalgan metodlar o`z samarasini ko`rsatmoqda.Dars jarayonida innovatsion texnalogiyalar ,interfaol metodlarning bir necha turlaridan foydalanib o`quvchilar qiziqishini oshirib borish barcha pedagog oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.Turli metodlar singari har bir dars davomida “Tabiat va hikmat “metodidan foydalanish o`quvchilarni izlanishga,tabiatga va atrof- muhutga boshqacha munosabatda bo`lishga va fanni sevishga olib keladi.Ular orasida suv haqidagi maqol va hikmatlarning o`rni beqiyozdir. Suv tabiiy ne`mat uni isrof qilmaslik bizning burchimizdir.*

### Kalit so‘zlar

*Jala, sel, chilla, suv, soy, ariq, daryo*

Geografiya- insoiyatni yashaydigan sayyora ,yani yer kurarsi haqida to`liq tasavvur hosil qilish uchun malumot berishga qaratilgan yagona fandir .Geografik madaniyatni o`quvchilarda shakllantirishda ming yillar davomida xalqning “ so`z gavhari” hisoblangan xalq maqollarining o`rni beqiyosdir .

Inson ijtimoiy hayotining rivojlanishi taraqqiyotining ilk davridan juda qimmatli , e`tiborli ,foydali meros qoldirgan . Ana shu merosni biz bugungi kunda qadryatlar deb tilga olamiz .

Qadryatlar \_xalqimizning urf odatlari ,marosimlar ,maqollar,matal,pand nasihatlardir.Bular orasida maqollar va hikmarlar alohida o`rin tutadi .Xalq tomonidan yaratilgan juda chuqur ilmiy amaliy ahamiyatga ega .Bular o`tgan yillar ,davrlar davomida sayqallanib ,ixcham ma`naviy durdonalarga aylandi.

Bugungi kunda Respublikamizni mustaqillikga ega bo`lishi xalqimizning madaniy merosini ma`rifat yo`lida to`la foydalanishni taqazo etadi.

Geografiya fanini o`qitishda xalq maqollarining o`rni beqiyosdir, chunki maqol va hikmatkar xaiq donishmandligini ,ota -bobolarimizning purhikmat so`zlarining so`zlarining qaymog`idir.Fanni oqitish davomida xalq maqollaridan mohirona foydalanish ,yosh,barkamol avlodni mehnatsevar ,oliyanob , kamtarin -bir so`z bilan aytganda yetuk

ma`naviyatli , chin ijobjiy fazilatlar to`la shakllangan yetuk shaxs bo`lib voyaga yetishlari ga o`z hissasini qo`shadi .

Adabiyot -so`z san`ati ,geografiya demakdir .Maqollar esa inson qalbining nozik kechinmalarini , hayotiy keng mushohadalarini o`zida jamlagan .

Maqollar- juda odiiygina ,ammo juda ulkan va murakkab so`z hisoblanadi. Ularning yaratilishida tarkib topishida avlodlarning juda katta badiiy mehnati ,iqtidori sarf bo`lgan . Geografya fanida qo`llaniladigan xalq maqollari hodisa va jarayonlarni aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun zarur vosita hisoblanadi.

“Geografiya- hududlar falsafasi”.

Ushbu jumla butun bir borliqni falsafiy jihatdan ochib beradi va o`quvchining kengroq fikrlashga undaydi . Dars davomida bunday maqollardan foydalanib “Tabiat va hikmat ” metodini qo`llash dars samaradorligini oshiradi va o`quvchilarni geografik bilimlarni puxta egallashga yordam beradi.Geografik maqollar juda ham serma`no bo`lib suv, yil fasllari, atmosfera yog`inlari , tabiiy hodisalar , yil oylari , hayvonot ,o`simlik , dehqonchilik va chorvachilik haqidagi mavzularni qamrab oladi.

“Suv bor yerda hayot bor” ,

“ Suv keldi- nur keldi”.

Sharqning keksa donishmandlari Ollohnинг eng keksa ne`mati , inson yashashi uchun eng hayotiy zaruratlardan biri -suv deb biladilar .Suv -tiriklik, yashash va yangilanish,ko`payish ramzi. Suv tufayli go`zal bog`lar barpo bo`ladi ,oltindek tovlanuvchi bug` doyzorlar,million-million tonna oq oltin ijodkori ham suvdir . Butun mavjudot va borliq yashashining asosiy mazmuni suvdir .Unda mujassam bo`lgan o`git nasihat ,xulosalarni insonning hayoti va yashashi uchun ma`naviy tayanch dasturi desak to`g`ri bo`ladi. Shuninh uchun ham sharq allomalaridan biri mirzo Bedil yaratga maqol va hikmatlarni “xalq kaliti” deb baholagan edi. Bugungi kunda har bir hikmat mag`zida ta`lim va tarbiyaga qaratilgan mazmun va xulosalar mujassamdir. Ularning mazmunini tahlil qilish shumi ko`rsatadiki ,birigina tabiat bilan bog`liq hikmatlar yuzdan ortiqdir.Ulardagi qaydlar va hikmatlar jonli va jonsiz tabiatning barcha komponentlarini asrash va avaylashga ,ozoda va sog`lom turmush tarziga undashga ,joylarni ekalogik jihatdan qulaylik darajasini bildirishga qaratilgandir.

Dono va ijodkor xalqimiz hozirgi avlodga nafaqat modiiy , tarixiy ,ijtimoiy boyliklarini meros qoldirgan , balki tafakkur gulshaniga molik bo`lgan ma`naviy ma`naviy xazinalarni ham in`om etgandir. Bular orasida ota -bobolarimizning og`zaki ijodidan joy olgan xalq maqollari xazinalar xazinasi sifatida alohida bahoga va e`tirfga loyiqdир. Xalq maqollarini vujudga kelishi ma`lum davr ,geografik muhit , iqtisodiy va siyosiy sharoit bilan bog`liqdır.

Maqollar- mazmuni jihatdan shunchalik serqirraki ,unda jamiyat va ijtimoiy hayotning barcha jahhalari o`z aksini topgan.

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to`playdi ,shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi . Maqol va hikmatli so`zlar ana shunday bebaho ma`naviy merosimiz hisoblanad. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan xalq yo`q.

Yevropaning taniqli sharqshunosi olimi , professor G. Vamberi otgan asrning ikkinchi yarmida o`lkamizga qilgan safaridan qaytgach qo`yidagicha yozgan edi:

“ ... sharq qadimdan hikmatlar o`lkasi bo`lib kelgan , shuning uchun ham o`tovda istiqomat qiluvchi kishilarga xalq hikmatlariga bo`lgan ishtiyoq Parij yoki Londondagi ma`lumotli jamiyat a`zolariga qaraganda kuchliroq ekanligiga hech kim ajablanmasligi kerak.Maqol va hikmatlarni yozma tilda ham jonli tilda ham uchratish ,yurt kazolarining saroyda ham , ko`chmanching o`tovida ham eshitish mumkin .Sahro o`g`loni hamma vaqt yuzida jiddiy tus olgan holda tinglaydi.Maqol ma`nosiga zid bo`lgan hech qanday oqilonqa gap, hech qanday inontiruvchi soz , uning fikriga ta`sir qila olmaydi, uning tabiatdagi tug`ma muttanosiblik hech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donoligiga ,noto`g`ri aytilmaganligiga astoyidil ,qattiq ishonchidan boshqa hech narsaga bunchalik kuchli tatzda namoyon bo`lmaydi”.\*

Hilmatlар butun bir kitob ,falsaviy dunyoqarashdir .Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to`playdi ,ana shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodga meros qilib qoldiradi .

Ozbek xalqi ana shunday xalqlardan biridir. Jalon madaniyatining ravnaqi uchun Al-xorazmiy, Abu-Nasr Farobiy,Abu Ali ibn Sino ,Abu Rayhon Beruniy ,Mirzo Ulug`bek ,Alishr Navoiy, Bobur Mirzo kabi ko`plab mutafakirlarni yetishtirib bergen xalqimiz madaniyatining donishmandligini qadiman namoyon etgan.

Hikmatlar insonni mehnatsevarlikka, tarbiyaviy ishlarga,insoniylikka, qolaversa hayotni „borliqni,borligicha,to`laligicha anglashga da`vat etadi.Boshqa fanlarga bo`lgani kabi geografiya faniga tegishli qator hikmatlar,hikmatli iboralar ko`plab uchrab turadi.

M:” Geografiya hududlar falsafasi”

“ Xarita -haqiqat oynasi” , “Xarita - geografyaning ikkinchi tilidir”

Maqol va hikmatlarni muvofaqiyatli qilish ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy rivojlanish yo`llarini xalqimizning odati, barcha kasb va hunarlarning o`ziga xos tomonlarini ,ularda ishlatilgan quroq -aslalahrni ,har bir jonivorlarni ,hayvonot dunyosini ,o`simliklar olamidagi qanchadan- qancha o`simliklarning o`ziga xos xususiyatlarini ,tabiat hodisalarining qonuniyatlarini, tabobat ilmining ko`pgina tomonlarini „islom dinining mafkurasini,falsafiy tushunchalarini ,ko`pgina serqirra hayotning jamiki tomonlarini atroflicha bilishni taqozo etadi.

Tabiat-inson yashaydigan muhit hisoblanadi. Yer haqida to`liq tasavvur hosil qilish uchun ma`lumot berishga qaratilgan yagona o`quv fani esa -Geografiyadir. Ushbu fan yer kurrasida ro`y beradigan tabiiy va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar va hodisalarini o`rgatadi.

---

Vamberi. G. “Ocherki Sredney Azii .1968-yil 323-324- berlar.

Tabiat haqidagi hikmatlar yer kurrasining tabiiy manzarasini ,ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ,aholi turmush darajasi ,atrof -muhit holatini yaxshilash vositalari va usullari haqida mantiqiy fikrlarni o`rgatadi va ko`plab ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hikmatlar insonga umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo`lgan tabiiy madaniyatni tarbiyalaydi. Tabiatda qo`llaniladigan xalq maqollari hodisa va jarayonlarni lo`nda ,aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun zarur bo`lgan vosita hisoblanai.

Tabiat haqidagi hikmatlarda suv bilan bog`liq hikmatlar salmoqli o`rin egallaydi. Suv haqidagi hikmatlarda suv ,uning qadri, daryo, uning rejimi, haqidagi tushuncha va

qonuniyatlar ,tabiat hodisaariga bag`ishlangan xalq hikmatlaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Hikmatlarda joy relyefi uning xususiystlari asosiy relief ko`rinishlari tog`lar,botiqlar, tekisliklar,vohalar ,adirlar haqida ma`lumot beriladi. Mana shu tushuncha va hodisalarini xalq hikmatlari orqali o`quvchiga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma`lumki, tabiiy geografiyada atmosfera yog`inlari, ularni keltirib chiqaradigan sabablar haqida alohida mavzular ajratilgan. Dono xaqimiz atmosfera yog`inlari va ularni foydasi va zararlari haqida ming yillik tajribasiga asoslanib xalq maqollqrini va hikmatlarini yaratgan .

Ushbu hikmatlarda tabiat hodisalari, yog`inlar shamol ,suv va boshqa jarayonlar aniq va lo`nda qilib yetkazib berilgan. Xalq maqollari ming yillar davomida yaratilganligi uchun oy nomlari eskicha atalgan .Hikmatlarda ushbu joy nomlari xalq tilida so`zlaydi.

Ma`lumki tabiatda “Yerning quyosh atrofida aylanishi”, yil fasllari va oylarning paydo bo`lishiga sabab bo`ladi. Ushbu jarayonlar ham hikmatlardan o`rin egallagan bo`lib , inson uchun katta ahamiyat eshigini ochadi.

Tabiat bilan bog`liq xaratgan hikmatlarda ham makon,ham zamon jihatidan voqelikdagi tabiiy,iijtimoiyy- iqtisodiy hodisalarining sabab ,oqibat munosabatlarini o`zida to`liq aks ettiradi. Tabiat mavzusidagi xalq maqollari o`quvchida fikrini lo`nda ,aniq va obrazli qilib ifodalashda fikrimiz uchun juda ham zarur bo`lgan vosita hisoblanadi. Yer yuzasidagi o`simlik va hayvonlarning turli tumanligi ,ularning o`zaro aloqadorligi va o`zaro ta`sir etib turishi ,yer yuzida ularning notejis tarqaganligi ,o`simlik va hayvonlarga insonning ta`siri ,uy hayvonlari va madaniylshtirilgan o`simliklar haqidagi bilim va tushunchalar olinadi.

Dehqonchilik ,chorvachilik ,bog`dorchilik va yerga ishlov berish bilan bog`liq bo`lgan xalq maqollari va hikmatlarini o`rganishda xalqimizning ming yillar davomida to`plagan xalq maqol va hikmatlarini qo`llash , mavzuga mos tayanch tushunchalar va asosiy hodisa jarayonlar mazmunini anglab olishga yordam beradi. Hikmatlarda tabiatga oid bo`lgan ancha-muncha ma`noli so`zlar bo`lib ,unda inson mehnati,qalbi, tabiatga bo`lgan mehri , kuzatishlari ancha namoyon bo`ladi.

Hikmatlarga geografik hodisa va jarayonlar mazmuni o`quvchiga ani`q yetib borishi uchun zarur ta`limiy vosita hisoblanadi.

-“Suv bor yerda hayot bor”

Ota- bobolar bir turkum maqollarda “hayot suvi” deb e`zozlanuvchi suv insoniyat va tabiat hayoti uchun naqadar qimmatki narsa ekanligini ,un qadriga yetish ,tejab-tergash,ifloslamay toza saqlash lozimligi yuzasidan nasihat qiladilar.

“Suv-oltindan aziz”,

“Suvsiz yer mozor , suvli yer -gulzor”,

“Suv- zar , suvchi-zargar”

“Suv keldi-nur keldi”,

“El hayoti er bilan, Yer hayoti-suv bilan”,

“Suv ichadigan qudug`inga tupurma”,

“Quduqqa tupurma , qaytib icharing bor” ( Bu keyingi maqollarni to`g`ridan -to`g`ri o`z ma`nosida ham , ma`jozan :” Hayot kechirishingda manfaati tegib turgan narsa va kimsaning qadriga yet,uni xor qilma” degan ma`noda qo`llaydilar.

Qaysi bir geografik maqol va hikmatni olmang hamma vaqt voqelikni yo keskin ijobjiy, ,yo keskin salbiy nuqtai nazardan baholaydi. Bu esa maqolni tez va keng ommalashishiga yo`l ochadi.

“Daryoning boshidagi asal ichadi,oxiridagi zahar”.

Ushbu hikmatli so`z o`ta chuqur ma`noga ega .Ushbu maqolni yoritish uchun birinchi navbatta daryo nimaligini bilib olishimiz zarur . Daryo-havzaga yoqqan yomg`irlardan hosil bo`lgan yer usti va yur osti suvlari hisobiga to`yinib ,tabiiy o`zanda oquvchi suv yo`liga aytildi. Bunda daryo havzasi alohida bir makon ekanligi, ,bosqlanish joyida suvning juda toza,musaffoligi ,nihoyat kishilarning xo`jalik faoliyati tufayli daryoning quyilish tomoni suvning ifloslanib borishi qat`iy ravishta qayt qilingan. Daryonong quyilish qismlarida yashovchi xalalar esa o`z ehtiyojlarini mana shu axlat to`la suv bilan qondirishga majburdirlar.

“Suv -zar,suvchi- zargar”.

Tabiatning yashashi inson qo`li bilan barpo etiladigan barcha narsalarning yaratilishida suvning ahamiyati katta .Yozning jazirama issiq kunlarida butun jonli mavjudot uchun suv - noyob inju,zardan ham qimmatli ekanligini his qiladilar. “Zar qadrini zargar biladi’ deganlaridek suv qadrini suvchi biladi. Keng paxtazor yam-yashil bo`y cho`zib borayotgan g`o`zalarga suv qo`yayotgan suvchi zargarga o`xshatiladi. Zargar esa noyob va qimmqtli narsa tilla ,duru marvaridlardan turli xil mo`jizaviy buyumlar ,bezaklaru taqinchoqlar tayyorlaydigan noyob kasb egasi.U yasagan buyumlar qimmatli bo`lib ,biz ularni avaylaysiz .Demak suv ham mana shu marvaridlardek qimmatli ,suvchi esa zargardek qadrli ,zero shu marvaridni yetishtirib beradigan aslida suv emasmi. Shunday ekan biz suvning qadriga yetishimiz ,uni ifloslanishiga yo`l qo`ymasligimiz zarur.Axir suv hayot manbai ,tirikligimiz ramzidir.

“Suvga tupurish uvol “

Suv-toza ,halol ,tiniq mo`jiza .U tashnalikni qondirishdek buyuk kuchga egadir.Mana shu buyuk ne`matga tushgan dog` kabi ba`zi kimsalar uni ifloslab tupuradilar,lekin bu islam diniga gunohi azim hisblanadi.Shuning uchun inson o`zining ehtiyojlarini qondiradigan buyuk ne`matni ifloslanishidan o`zini asray olishi kerak. Uni zararlash salomatligimizga putur yetkazmak demakdir.

“ Suv yeti yumalasa halol bo`ladi”

Suv- tiniqlik va poklik ramzi .Halollik- ulug` insoniy fazilatlardan biri .Inson va suv -ezgu tushuncha .Nemis ijodkori Henrix Hayde aytganidek “ Halollik sotilsa o`ladi.Biz yashab turgan go`shamizdan ancha olisdamiz ,tap-taqir cho`ldamiz yoki purviqor tog`lar tepasida sayr qilib yuribmiz .Juda -juda tashna qolganmiz .Shunda oldimizdan noyob narsa-suv chiqib qoladi, lekin ichay, shoshob -shoshib simiray deymanu , nimadir yo`l qo`ymaydi.Hamrohim menga “ich” deydi qaytalab ,keyin ko`nglimni xotirjam qilish uchun “suv yeti yumalasa holol bo`ladi “ deydi Shunda men qonib -qonib ho`plab ichamanda ,suv bebahи ne`mat ,tiriklik ramzi ekanligiga ishonaman .Shu o`rinda o`zbek xalqimizning uch marta qaytarib ,keyin qo`yib ichish odatlarini misol keltiraylik . uch marta piyolaga qo`yib ichish odatlarini misol keltiraylik.Uch marta piyolaga qo`yish va qayta choynakka solish

hammasi bo`lib olti marat , oxirgisi , ya`ni yettinchi dumalash ,piyolaga qo`yib uzatish hisoblanadi va bu choy halol deb qaraladi.

“ Chilla suvi -tilla suvi “

Bu maqolda yoz chillasida (ya`ni 25- iyun va 5- avgust oralig` idagi davrda ) ekinlarni qondirib sug`orish , qish chillasida ( ya`ni 25- dekabrdan 5- fevralgacha bo`lgan davr) esa yerga yaxob suvi berish tavsiya etiladi . Bobo dehqonlarning ko`p yillik tajribalariga ,bu har ikkala tadbir ham mo`l hosil yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Chilla qori-yerning qoni “, Chillada sug`orilgan yer ,bog` chil botmon uzum berar “ .Chillada yerkarni sug`oradilar ,yaxob beradilar ,yerning tuzini yuvadi , yumshoq qiladi.

“ Serdaraxt joyni sel olmas”

“Sel”- Bahorda qor yog`ishi va jala qo`yishi natijaida shiddat bilan oqib keladigan qumtosha ,aralash loyqa toshqin suvi.

Sel katta tezlik bilan kelib ko`plab joylarga talofat yetkazadi. Agar daraxtlar qanchalik ko`p yoki bir-biriga yaqin bo`lsa , u yerda sel sekin boradi va harakati to`xtaydi. Daraxtlar selni harakatini kamaytirib , o`sha yerni yuvilishdan saqlaydi. Daraxtlar o`sha yerdagi hududlarni seldan saqlaydi.

“Samarqand soyiga solma imorat ,

Jala bosib bir bir kuni bo`ladi g`orat”.

“Jala”- yirik tomchi ,kuchli ,sharros yomg`ir. Bahor va yoz bosharida siklonlar faoliyati juda kuchayib ko`tarılma havo oqimi tezlashganda siklonning salqin fronti o`tayotganda yog`adi Jala ko`pincha tog` va oldilarida sel oqimlarini vujudga kelishiga sabab bo`ladi .

“Soy” - Sel , jala ,yogingarchiliklar oqibatida paydo bo`lgan suv yo`li ,ariqdan kattaligi va tabiatan inson mehnatisiz paydo bo`lgan suv yo`li, ariqdan kattaligi va tabiatan inson mehnatisiz paydo bo`lishi bilan farq qiladi. Soydagagi suvning ko`payishi ham mana shu yoginlar natjasida ro`y beradi. Shuning uchun ham soy yaqinida solingan uylar omonat hisoblanadi,chunki bahor faslining boshlarida va kuz faslida sel oqibatida vayron bo`lishi mumkin .Sel -kuchli yomg`ir jala oqibatida vujudga keladi.

“Suv -tilsiz yov”

“ O`t bilan suv- tilsiz yov”,

“Suvning ishi -o` pirmoq,o`tning ishi -kuydirmoq “,

“Suvning ko`rinishi muloyim ,bag` ritosh (suv garchi sekin , muloyim ,beozor oqqani bilan suzishni bilmagan va ehtiyyot bo`lmagan kishini suvga g`arq qiladi deyilmoqchi ),”

Suvning ozi ham bir balo , ko`pi ham bir balo”,

“Daroyi ola bo`ladi,daryo -bir balo bo`ladi”(daroyi-uzum).Suvning , o`tning ana shunday xavfsizligini ta`kidlab , undan saqlanish choralarini ko`rish zarurligini uqtirganlar.

“Ovchining o`limi -ovda, suvchining o`limi suvda”,

“Dengizdan o`tib soyda cho`kma “ ,

“O`t balosidan ,suv balosidan o`zing saqla”,

“Suv o`pirib kelgan to`zanni do`ppi bilan bekitib bo`lmas”.

“ Ariq qazimasang suv chiqmas”

Insonga qosh , yerga ariq yarashar deydilar .Bahorda ariqlar hashar qilinadi ,tozalanadi,suv oqaverib ariqlar qumidan bekilib qoladi. Hashar qilingan yerdan suv o`ynab o`ynab oqadi. Ona yerimiz ham bir zumda obi hayotga tonadi.

” Suvga ariq- yo`lga chariq “,

“Ekin ekmoq -oson , suv keltirmoq qiyin” deganlaridek agar biz biror joyga bormoqchi bo`lsak darrov yo`lga chiqamiz ,chunki yo`llar bizni manzilimiz sari yetaklaydi, ariq esa -suv yo`li.

”Suv keltirar mard kishi ,ekin ekar har kishi”( ilgari zamonlarda kanal qazib suv keltirishdan og`ir ish bo`lmagan. Maqolda shu holat aks ettirilgan). Shu o`rinda ariq qazish bilan bog`liq bir afsona ,rivoyatni aytib o`tishni joiz deb bildim .Otgan zamonlarda Shohpur ismli kishi o`tgan bo`lib ,u cho`l va sahro o`rtasidan ariq qazdirib ,suv keltiradi. Asta-sekinlik bilan uning atrofidagi yerlar ekinzorlarga aylantirilib ,odamlar ham ko`chib kelib ,o`zlariga uy qurib joylashib oladilar.Shunday qilib Buxoro viloyatidagi tumanlardan biri Shofirkon vujudga kelgan.Shofir-Shohpur so`zidan olingan bo`lib ,odamning ismi,kon-esa aslida “kand “ so`zi bo`lib ,forschada “qazdi” degan manosini beradi., ya`ni “Shohpurkand”-“Shohpur qazidi “ degan ma`noni beradi.

“Ariqdan suv uilmasa ,savatdan non arimas’,

”Tashnaning tushida suv kirar”,

“Suvni qum tagidan qidir”,

”Qum bor joyda suv bor, suv bor joyda jon bor”. Dashtu biyobonlarda , qum sahrolarga suvsizlik va tashnalikdan qutilish uchun shunday nasihatomuz so`zlar qo`llanilgan.

“Suv tilasang ,Sulaymondan tila “.

Xorazm vohasining xo`jalik hayotida katta rol o`ynaydigan barcha asosiy kanallar u yoki bu avliyoning nomi bilan bog`langan .Bunday avliyo goho kanalning homiysi sifatida qadrlansa ,goho-Amudaryodan mo`jizaviy ravishta suv chiqib ,kanalning bevosita asoschi bolgan kishi sifatida qadrlaganlar . Avliyo Sulaymonni Xonqanining janubiy tomonidagi kanallar tarmog`ining homiysi deb hisoblaganlar.

“ Daryo suvini bahor toshirar,

Inson qadrini mehnat oshirar “.

O`lkamizning yasharish fasli bahorda yil bo`yi yoqqan yomg`iru qorlar purviqor tog`lar bag`ridan erib tushib ,daryolarga quyiladi. Natijada suvi ko`payib sadhi ko`tariladi. Mana shu hodisa bahor faslida ro`y berishi uchun ham daryo suvini bahor toshiradi deyilgan .Aslida aslida bu suvning ko`payishi yog`ingarchiliklar oqibatida ro`y beradi. Maqolning ikkinchi qismiga keladigan bo`lsak inson qadrini mehnat oshirar , ya`ni hamma xalq uchun ham mehnatsevar,ishchan ,mehnatkash insonlarga hurmat ko`rsatilib ,dangasa insonlardan uzoqroq yurish ,ularni ham insoniylikka da`vat etish aytilgan. Zero ota -boblarimiz xalq maqollarida “ hayot suvi” deb e`zozlovchi suv insoniyat va tabiat hayoti uchun naqadar qimmatli narsa ekanligini turli misollar tariqasida ta`kidlab kelganlar .

Atama va tayanch tushunchalar

Suv -tiriklik, yashash va yangilanish,ko`payish ramzi. Suv tufayli go`zal bog`lar barpo bo`ladi ,oltindek tovlanuvchi bug`doyzorlar,million-million tonna oq oltin ijodkori ham suvdir . Butun mavjudot va borliq yashashining asosiy mazmuni suvdir .

“Sel”- Bahorda qor yog`ishi va jala qo`yishi natijaida shiddat bilan oqib keladigan qumtosho ,aralash loyqa toshqin suvi.

Sel katta tezlik bilan kelib ko`plab joylarga talofat yetkazadi. Agar daraxtlar qanchalik ko`p yoki bir-biriga yaqin bo`lsa , u yerda sel sekin boradi va harakati to`xtaydi.

“Jala”- yirik tomchi ,kuchli ,sharros yomg`ir. Bahor va yoz bosharida siklonlar faoliyati juda kuchayib ko`tarilma havo oqimi tezlashganda siklonning salqin fronti o`tayotganda yog`adi .

“Soy” - Sel , jala ,yogingarchiliklar oqibatida paydo bo`lgan suv yo`li ,ariqdan kattaligi va tabiatan inson mehnatisiz paydo bo`lgan suv yo`li, ariqdan kattaligi va tabiatan inson mehnatisiz paydo bo`lishi bilan farq qiladi. Soydagagi suvning ko`payishi ham mana shu yeginlar natjasida ro`y beradi.

“Sel”-kuchli yomg`ir jala oqibatida vujudga keladi.

“Daryo” -tabiiy o`zandan oqayotgan suv ,yog`in sochin , buloq, muz va buloq suvlarining to`planib oqishidan hosil bo`ladi. Daryoning hosil bo`lishi uchun muayyan Iqlimiylar va geomorfologik sharoit bolishi kerak.

“Chilla” -qishning va yozning o`rtasidagi qirq kuni . Qishda 26-dekabrdan 5-fevralgacha va yozda 26- iyundan 5- avgustgacha o`tgan davr.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTAR RO`YXATI.**

1. Mirakmalov M.T . Xalq tabiiy geografik terminlari. -T; “Fan va texnalogiya” 2009
2. Mirortiq mirabdulla o`g`li. Jug` rofiy atamalar lug`ati-T; ”Fan”, 1992
3. Nazarov I.Q . Geografik bashorat va amaliyot.- B; 2010
4. Sultonova H, Ismoilova D. O`zbek xalq maqollari . T;” Matbuot “, 1990
5. Shomaqsudov Sh, Shoraxmedov Sh . Hikmatnoma -Toshkent ;”Matbuot ”1990
6. O`zbe xalq maqollari. 1-tom -T; “Fan “ 1987
7. O`zbek xalq maqollari . Ko`p tomlik .-T “ G`ofur Gulom “ 1989
8. G`ulomov P.N. Jug` rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug`ati . - T; “O`ituvchi” ; 1994
9. Hasanov H. geografiya terminlari lug`ati .-T ;” Fan “ ,1964